
Gulchehraxon ASQAROVA: Farzandim ham bizga chin ko'ngildan yordam qo'lini cho'zgan insonlardek kamol topishiga ishonaman.

"Istiqlol" mahalla fuqarolar yig'ini Abdulla Qodiriy ko'chasi 41/70-uyda yashovchi Gulmiraxon Asqarovaning 2019 yil og'ir xastalikka chalingan turmush o'rtog'i 2021 yil noyabr oyida olamdan o'tdi. Bir o'g'il va bir qiz bilan qolgan G.Asqarovaning xonadoni ham ta'mirtalab bo'lgan. Bemor bo'lgan turmush o'rtog'ini davolatish, shuningdek ro'zg'or qilish bilan uyning ta'mirlanishi kechikkan.

Xolbek Otajonov rahbarligidagi Kadastr agentligi Farg'ona shahar bo'limi ishchi-xodimlarining homiyligi hisobidan bir xonali uy tez kunda to'liq ta'mirdan chiqarildi. Bugun qizini turmushga bergan Gulchehraxon o'g'li bilan birga yangi uydek ko'rinayotgan xonadonda yashashmoqda.

-Shahar hokimining tashabbusi bilan boshlangan hayrli va ezgu ish mening xonadonimda ham amalga oshdi,- deydi xonadon sohibasi.-Albatta, men ham bunga javoban astoydil mehnat qilmoqdaman. Yagona boquvchim bo'lib ulg'ayayotgan farzandimga yaxshi tarbiya beraman, o'qitaman. Bizga chin ko'ngildan yordam qo'lini cho'zgan insonlardek kamol topishiga ishonaman.

Mazkur hayrli ishga mahallada faoliyat yuritayotgan hokim yordamchisi Asilbek Hakimovning ham boshqosh bo'lgani oila vakillari va qo'shnilar tomonidan e'tirof etildi.

2022-05-19 10:02:35